Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Madina Abdujabborova – teacher

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: madin160707@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0507-5667

INGLIZ TILI DARS MASHG‘ULOTLARIDA O‘YIN METODLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tili darslarida o‘yin usullaridan foydalanishning ahamiyati va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini muhokama qiladi. Unda bunday usullar o‘quv jarayonini qanday yaxshilashi va darslarni o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli qilishiga e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda interaktiv o‘yinlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o‘quvchilar faolligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi, ayniqsa, ko‘pincha passiv o‘rganishga asoslangan an’anaviy metodlar bilan solishtiriladi. Shuningdek, o‘yinlar qanday qilib ishtirokni rag‘batlantirishi, qiziqishni saqlab turishi va sinfda yanada faol muloqotni ta’minlashiga alohida e’tibor beriladi. Natijalar o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish yanada samarali va o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Maqola yakunida esa xorijiy tilni o‘qitish jarayonida o‘yin texnologiyalaridan tizimli foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘yin metodikasi, interaktiv ta’lim, o‘quvchi motivatsiyasi, zamonaviy yondashuv, og‘zaki nutq, ta’lim samaradorligi.

Madina Abdujabborova – o‘qituvchi
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

THE ADVANTAGES OF USING GAME-BASED METHODS IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS

Abstract. This article discusses the importance of using game-based methods in English lessons and their impact on overall educational effectiveness. It focuses on how such methods can enhance the learning process and make lessons more engaging for students. The study analyzes the role of interactive games and modern teaching approaches in increasing student activity, especially when compared to traditional teaching methods that often rely on passive learning. Particular attention is given to how games encourage participation, maintain interest, and support more dynamic classroom interaction. The findings highlight that incorporating game elements into lessons can contribute to a more effective and student-centered learning environment. In addition, the article emphasizes the need to move beyond conventional practices by integrating innovative techniques. At the conclusion of the study, practical recommendations are provided for the systematic use of game technologies in the process of teaching a foreign language in classroom settings.

Keywords: English, game methodology, interactive learning, student motivation, modern approach, oral speech, educational effectiveness.

Мадина Абдужабборова – преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. Данная статья рассматривает важность использования игровых методов на уроках английского языка и их влияние на эффективность обучения. В ней уделяется внимание тому, как такие методы способствуют улучшению учебного процесса и делают занятия более увлекательными для учащихся. В исследовании анализируется роль интерактивных игр и современных педагогических подходов в повышении активности студентов, особенно по сравнению с традиционными методами обучения, которые часто основаны на пассивном восприятии материала. Особое внимание уделяется тому, как игры стимулируют участие, поддерживают интерес и способствуют более динамичному взаимодействию в классе. Полученные результаты показывают, что внедрение игровых элементов в учебный процесс способствует созданию более эффективной и ориентированной на учащегося образовательной среды. В заключение статьи приводятся практические рекомендации по систематическому использованию игровых технологий в процессе обучения иностранному языку.

Ключевые слова: английский язык, игровая методика, интерактивное обучение, мотивация учащихся, современный подход, устная речь, эффективность образования.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonida ingliz tilini bilish ta’lim, ish va muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli, ushbu tilni samarali o‘rgatish masalasi ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Biroq, tilni samarali o‘rgatish uchun faqat an’anaviy usullarga tayanib qolish yetarli emas. Chunki bunday darslar ba’zi o‘quvchilar uchun zerikarli bo‘lib qoladi, ularning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi pasayadi. Natijada, til o‘rganish jarayoni sustlashishi mumkin.Shu sababli o‘quvchilarni darsga qiziqtiradigan zamonaviy metodlardan foydalanish o’quvchilarning o’rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Shunday muammoni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlardan biri o‘yin metodikasidir. O‘yin metodikasi bu ta’lim jarayonida o‘yin elementlari orqali o‘rgatish usuli hisoblanadi. Ya’ni, dars oddiy tushuntirish bilan cheklanibgina qolmasdan, balki turli o‘yinlar, mashqlar va interaktiv faoliyatlar orqali tashkil qilinadi.

O‘yinlar orqali darsni tashkil etish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni erkin fikrlashga undaydi va til o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin asosidagi mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi, chunki ular o‘yin orqali tezroq va osonroq o‘zlashtiradi, shuningdek, darsda faol ishtirok etadi.

Bundan tashqari, o‘yin metodikasi yordamida o‘quvchilar yangi so‘zlarni oson eslab qoladi, talaffuzini yaxshilaydi va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa chet tilini o‘rganishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tili dars mashg‘ulotlarida o‘yin metodikalaridan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatish va ularning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sirini yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ingliz tilini o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshiradi hamda bilimni yodda saqlash darajasini an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada yaxshilaydi (Lee, 1995; Uberman, 1998). Bu esa o‘yin metodikasining ta’lim jarayonida samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, o‘zbek olimlari ham mazkur masalaga alohida e’tibor qaratib, o‘yin texnologiyalarini dars jarayoniga joriy etishning muhimligini ta’kidlaydilar. Xususan, G‘.Yuldasheva o‘z tadqiqotida til o‘yinlari o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi hamda ijodkorligini kuchaytirishini qayd etadi (Yuldasheva, 2020). Shu bilan birga, Olib borilgan izlanishlar natijasi yana shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosidagi metodlar o‘quvchilarning darsga qiziqishini os-

hiradi va bilimni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Ayniqsa, interaktiv o‘yinlar orqali grammatika qoidalarini amaliy mashqlar bilan mustahkamlash samarali natijalar berishi kuzatilgan (Sun & Hsieh, 2018). Smith va Jones o‘z tadqiqotlarida o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishi, ularni faol ishtirok etishga undashi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishini ilmiy asoslab bergan. Bu esa o‘yin metodikasining ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi (Smith & Jones, 2018). O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan eng samarali dars shakllaridan biri imitasion (taqlidiy) o‘yinlardir. Ushbu o‘yinlarning muhim maqsadlaridan biri bu o‘quvchilarning o‘z xulq-atvorini modellashtirishidir (Soatova, 2019)

Ushbu tadqiqotda ingliz tilini o’rgatishda o’yin metodikasining ahamiyatini o’rganish eksperimental va kuzatuv tadqiqot usullarini qo’llagan holda amalga oshirildi. Ular eksperimental usul bu tadqiqotda maxsus sharoit yaratib, natijani tekshirish usuli. Ya’ni, o‘qituvchi yoki tadqiqotchi biror yangi metodni (masalan, o‘yin metodikasini) qo‘llab ko‘radi va uning natijasini kuzatadi. Kuzatuv usuli esa bu o‘quvchilarni tabiiy holatda kuzatish orqali ma’lumot yig‘ish usuli. Bu yerda hech narsa o‘zgartirilmaydi, faqat jarayon qanday ketayotgani kuzatiladi.

Unda 50 nafar maktab o‘quvchilari ishtirok etdi. Dars mashg‘ulotlari davomida interaktiv o‘yinlar, guruhli ishlash, videoroliklar, viktorinalar hamda kompyuter o‘yinlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, grammatik bilimlari va lug‘at boyligi, shuningdek, ularning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi muntazam ravishda kuzatildi va baholandi.

Ushbu qo’shma usullar orqali o’rganish o’yin texnologiyalarining o’quv jarayonida tutgan o’rni haqida har tomonlama tushuncha beradi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili mashg’ulotlarida o‘yin texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Darslarda faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar soni ortdi va ular mashg‘ulotlarga ko‘proq jalb etildi.

Shuningdek, o‘yinlar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda juda foydali bo‘ldi. Ular yangi so‘zlarni tezroq eslab qoldi, to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qildi va muloqot jarayonida faolroq qatnasha boshladi.

Grammatika bo‘yicha ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Interaktiv o‘yinlar yordamida o‘quvchilar grammatik qoidalarni amaliy mashqlar orqali yanada mustahkamlab, ularni yaxshiroq tushunishiga erishildi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan motivatsiyasi va qiziqishi oshgani aniqlandi. Ular dars davomida faol bo‘lib, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashishga intilishdi.

Umuman olib aytganda, o‘yin metodikasidan foydalanish ingliz tilini o‘rganishda ancha samarali natijalar berishi va o‘quvchilarning bilim hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili darslarida o‘yin metodikasidan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi va bilimni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu natija avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi. Masalan, Lee (1995) va Uberman (1998) ta’kidlaganidek, o‘yin asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning ishtiroki va yodda saqlash darajasi an’anaviy usullarga nisbatan yuqori bo‘ladi (Lee, 1995; Uberman, 1998). Ta’kidlash joizki, til o‘yinlari o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini, mustaqil fikrlashini va ijodkorligini rivojlantirishini qayd etganidek, tadqiqotimiz natijalari ham shuni tasdiqlaydi. Interaktiv o‘yinlar orqali darslar tashkil etilganda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalaydi, mashg‘ulotlarga faolroq qatnashadi va yangi grammatik qoidalarni amaliy mashqlar orqali yaxshiroq o‘zlashtiradi. O‘yin faoliyati o‘quvchilarda tezkor javob berish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi (Shodmonov, 2017).

Natijalarni tahlil qilganda, interaktiv o‘yinlar orqali grammatika qoidalarini amaliy mashqlar bilan mustahkamlash samarali bo‘lgani kuzatildi. Bu esa o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirib, dars jarayonini qiziqarli va faol qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘yin metodikasi nafaqat bilimni mustahkamlash, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijo-

diy yondashuvni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek ta'kidlab o'tish kerakki, ishtirokchilar soni 50 nafar bilan cheklangan bo'lib, natijalarni kengroq ta'lim muassasalariga umumlashtirish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Shunga qaramay, olingan natijalar o'yin metodikasining samaradorligini va ta'lim jarayonida uning ahamiyatini yaqqol namoyon qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslarida o'yin metodikasidan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi va o'rgangan bilimni mustahkamlash jarayonini yengillashtiradi. Interaktiv o'yinlar yordamida grammatika qoidalari amaliy mashqlar orqali mustahkamlanadi, shu bilan birga yangi so'zlarni eslab qolish va talaffuzni yaxshilash imkoniyati oshadi. Bundan tashqari, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalar ham sezilarli darajada rivojlanadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari boshqa olimlar topilmalarini qo'llab-quvvatlaydi. Lee va Uberman tadqiqotlari ham o'yin asosidagi darslar o'quvchilarning ishtirokini va bilimni yodda saqlash darajasini oshirishini ko'rsatgan. Shu sababli, o'yin metodikasi nafaqat darslarni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi. Shu asosda, o'qituvchilarga o'yin texnologiyalarini dars mashg'ulotlarida muntazam qo'llash tavsiya etiladi. Tadqiqot cheklovlari mavjud bo'lsa-da, olingan natijalar o'yin metodikasining samaradorligini aniq ko'rsatadi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Lee, J. (1995). *Using games in the language classroom*. Oxford University Press.
2. Shodmonov, S. (2017). *O'quvchilarda ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari*. O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
3. Smith, P., & Jones, R. (2018). Motivation and creativity in game-based language learning. *Language Learning Journal*, *46*(2), 123–136.
4. Sun, Y., & Hsieh, C. (2018). Interactive games for grammar learning in English language education. *Journal of Language Teaching Research*, *9*(3), 45–56.
5. Soatova Gulsunoy Kupaysinovna (2019). Innovative teaching methods in the preparation of future elementary school teachers. *Наука и образование сегодня*, (6-2 (41)), 107-108.
6. Susaniari, N., & Santosa, A. (2024). The effect of game-based learning on student engagement and knowledge retention. *International Journal of Educational Research*, *115*, 102–115.
7. Uberman, A. (1998). *Games for language learning*. Cambridge University Press.
8. Yuldasheva, G. (2020). *Til o'yinlari yordamida o'quvchilarning ijtimoiy va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish*. Fan va Texnologiya Nashriyoti.